

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL  
ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

## **“AVTOMOBIL VA TRAKTORSOZLIK”**

**yo‘nalishi**

## **“AVTOMOBILSOZLIK VA TRAKTORSOZLIKDA KOMPYUTERLI LOYIHALASH”**

**moduli buyicha**

## **O‘QUV –USLUBIY MAJMUA**

**Toshkent - 2022**

*Mazkur o‘quv uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 25-dekabrdagi 538-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dastur asosida tayyorlandi.*

- Tuzuvchilar:** TDTU, “Erusti transport tizimlari” kafedrasi katta o‘qituvchisi N.B.Abduraxmanov
- Taqrizchi:** TDTU, “Erusti transport tizimlari” kafedrasi katta o‘qituvchisi B.Sh.Primkulov
- Taqrizchi:** «Qishloq xo‘jaligi mashinasozligi konstruktorlik – texnologik markazi» MChJ direktori. PhD. Sh.Axmedov

*O‘quv uslubiy majmua Toshkent davlat texnika universiteti Kengashining 2021-yil 29-dekabrdagi 4-sonli yig‘ilishida ko‘rib chiqilib, foydalanishga tavsiya etildi.*

## MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR .....	4
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI .....	11
III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI .....	14
IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI .....	47
V. KEYSALAR BANKI .....	68
VI. GLOSSARIY .....	70
VII. ADABIYOTLAR RO'YIHATI.....	76

## I. ISHCHI DASTUR

### Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdan tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019-yil 27-avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish hamda oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Dastur mazmuni oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari va qonunchilik normalari, ilg‘or ta’lim texnologiyalari va pedagogik mahorat, ta’lim jarayonlarida axborot-kommunikasiya texnologiyalarini qo’llash, amaliy xorijiy til, tizimli tahlil va qaror qabul qilish asoslari, maxsus fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot va o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativligi, global Internet tarmog‘i, multimedia tizimlari va masofadan o‘qitish usullarini o‘zlashtirish bo‘yicha yangi bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Ushbu dasturda avtomobilsozlik va traktorsozlik sohasi ishlab-chiqarishda zamonaviy loyihalash usullari va dasturlarini qo’llashni talab qiladi. Shu sababli traktorlar, avtomobillar va qishloq xo‘jalik mashinalarini loyihalashda avtomatik loyihalash (CAD,CAM,CAE) masalalari muhim o‘rin tutadi. Xozirgi kunda malakali mutaxassislar bilimini namoyish qila olishda komp’yuterda loyihalash ko‘nikmalari,

CAD,CAM,CAE dasturlarida ishlash qobiliyati asosiy o‘rin tutadi. Mutaxassislarining raqobatga bardoshlik darajasi shu orqali ishlab – chiqarishda asosiy o‘rinda bo‘lganligi sababli muhim o‘rin tutadi.

CAD,CAM,CAE dasturlarida ishlay olishi malakali mutaxassislarining bugungi kun talabidir. Chunki avtomatik loyihalash tizimi xar kanday loyixalash jarayonini vaktini yuz martalab kiskartiradi, ishlab-chikarish samaradorligini oshiradi.

### **Modulning maqsadi va vazifasi**

Avtomobilsozlik va traktorsozlikda kompyuterli loyihalash modulining maqsad va vazifalari:

- Avtomobilsozlik va traktorsozlikdagi loyihalash va yaratishda injenerlik masalalarini CAD,CAM,CAE avtomatlashtirilgan loyixalash tizimlarida elektron loyixa xujjatlarni tayyorlash va malakasini yaratishdir.
- Avtomobilsozlik va traktorsozlikdagi CAD,CAM,CAE dasturlarida ishlash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar, CAD,CAM,CAE bo‘yicha yangilanayotgan dastur ta’minotlari bilan tanishtirish va ularda injenerlik masalalarini echish o‘rgatish

### **Modul bo‘yicha tinglovchilarining bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

Avtomobilsozlik va traktorsozlikda kompyuterli loyihalash modulni o‘zlashtirish orqali quiydagisi bilim ko‘nikma va malakaga ega bo‘ladi:

#### ***Tinglovchi:***

- avtomobil va traktorlarni avtomatik loyihalash tizimlarini;
- AutoCAD dasturlarini;
- Kompas dasturlarini;
- T-Flex dasturlarini;
- SolidWorks dasturlarini;
- CAE dasturlarini;
- maxsus kompyuterli loyihalash tizimlarini **bilishi** kerak.

#### ***Tinglovchi:***

- AutoCAD;
- Kompas,
- T-Flex;
- SolidWorks;
- CAE dasturlarida ishlash **ko‘nikma va malakalariga** ega bo‘lishi lozim.

**Tinglovchi:**

- avtomobilsozlik va traktorsozlikda kompyuterli loyihalash vazifalaridan kelib chiqib loyihalashdagi modellashtirish, texnik echimlarni qabul qilish, optimallash usullarini to‘g‘ri tanlay bilish kompetensiyalariga ega bo‘lishi lozim.

**Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar**

“Avtomobilsozlik va traktorsozlikda kompyuterli loyihalash” moduli ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi. Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikasiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

-ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentasion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

-o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlardan, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kolokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

**Modulning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan bog‘liqligi va uzviyligi**

Mazkur modul “Avtomobilsozlik va traktorsozlik” kursidagi fanlar bilan uzviy bog‘liq.

**Modulning oily ta’limdagi o‘rni**

Respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijalari va hududiy muammolarining texnologik mashinalar termodinamikasiga ta’siri masalalarini qamraydi.

## Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	<b>Modulmavzulari</b>	Tinglovchiningo‘q uv yuklamasi, soat			
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg‘ulot	Ko‘chma mashg‘ulot
1.	Avtomobilsozlik va traktorsozlikda kompyuterli loyihalash (CAD-CAM-CAE) dasturlari bilan tanishish. Ularning dasturlarining tasniflanishi va darajalanishi.	4	2	2	-
2.	CAD dasturlari ishlab chiqaruvchilar. Dasturlarning hozirgi vaqtdagi tahlili va ishlab chiqarishda qo‘llanishi.	4	2	2	
3	CAM dasturlari ishlab chiqaruvchilar. Dasturlarning hozirgi vaqtdagi tahlili va ishlab chiqarishda qo‘llanishi.	4	2	2	
4.	Traktor va QXMLarni loyixalashda konstruktsiyalar og‘irligi va metal sig‘imi masalalari	6	2	4	
	<b>Jami:</b>	<b>18</b>	<b>8</b>	<b>10</b>	

## NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

**1-mavzu: Avtomobilsozlik va traktorsozlikda kompyuterli loyihalash (CAD-CAM-CAE) dasturlari bilan tanishish. Ularning tasniflanishi va darajalanishi**  
**Kompyuterli loyihalash (CAD-CAM-CAE) tushunchalari. CAD-CAM-CAE dasturlari bilan tanishish. CAD-CAM-CAE dasturlarini o‘quv jarayonida qo‘llash. CAD-CAM-CAE dasturlarining tasniflanishi. CAD-CAM-CAE dasturlarining darajalanishi.**

**2-mavzu: CAD dasturlari ishlab chiqaruvchilar. Dasturlarning hozirgi vaqtdagi tahlili va ishlab chiqarishda qo‘llanishi**

CAD dasturlari ishlab chiqaruvchilar. Rossiya Federatsiyada kompaniyalarining avtomobilsozlik va traktorsozlikda qo‘llanilayotgan dasturlari Kompas, T-Flex, Winmasin. Xorij davlat kompaniyalari dasturlari AutoCAD, Solidworks, NX. Dasturlarning hozirgi vaqtdagi tahlili. Dasturlarning O‘zbekiston avtomobilsozlik va traktorsozlik sanoati ishlab chiqarishida qo‘llanishi.

### **3-mavzu: CAM dasturlari ishlab chiqaruvchilar. Dasturlarning hozirgi vaqtdagi tahlili va ishlab chiqarishda qo'llanishi**

CAM dasturlari ishlab chiqaruvchilar. Rossiya Federatsiyada kompaniyalarning avtomobilsozlik va traktorsozlikda qo'llanilayotgan dasturlari Gemma-3D, T-Flex CHPU, Intex-Raskroy. Xorij davlat kompaniyalari dasturlari MasterCAM, ArtCAM, SolidCAM. Dasturlarning hozirgi vaqtdagi tahlili. Dasturlarning O'zbekiston avtomobilsozlik va traktorsozlik sanoati ishlab chiqarishida qo'llanishi.

### **4-mavzu: CAYE dasturlari ishlab chiqaruvchilar. Dasturlarning hozirgi vaqtdagi tahlili va ishlab chiqarishda qo'llanishi**

CAYE dasturlari ishlab chiqaruvchilar. Rossiya Federatsiyada kompaniyalarning avtomobilsozlik va traktorsozlikda qo'llanilayotgan dasturlari ISPA, Kompas Analiz, T-Flex Dnamika. Xorij davlat kompaniyalari dasturlari Ansys, Solidworks Simulation, NX CAE. Dasturlarning hozirgi vaqtdagi tahlili. Dasturlarning O'zbekiston avtomobilsozlik va traktorsozlik sanoati ishlab chiqarishida qo'llanishi.

## **AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

### **1-mavzu: Kompas, T-Flex, Solidworks, NX dasturlarida 2D chizmalar bajarish.**

Kompas, T-Flex, Solidworks, NX dasturlari interfeysi o'rganish. Dastur ishchi panel komandalari bilan tanishish. Sodda 2D chizmalar bajarish va ularni tahrirlash. 2D chizmalarga o'lchamlar qo'yish.

### **2-mavzu: Kompas, T-Flex, Solidworks, NX dasturlarida 3D modellarni qurish**

Kompas, T-Flex, Solidworks, NX dasturlari interfeysi o'rganish. Dastur ishchi panel komandalari bilan tanishish. Sodda 3D model qurish va ularni tahrirlash. Sodda 3D modellardan yig'ma 3D model yaratish.

### **3-mavzu: Kompas, T-Flex, Solidworks, NX dasturlarida SAYE tahlillarini bajarish**

Kompas Analiz moduli bilan tanishish. 3D modelni tahlil qilish va chekli elementlarga bo‘lish. Chekli elementlarda mustahkamlikka hisoblash usullari va mezonlarini tanlash. Mustahkamlikka hisoblash va natijalarini olish.

#### **4-mavzu: Gemma, T-Flex CHPU, ArtCAM, SolidCAM dasturlarida boshqarish dasturlarini ishlab chiqish**

Berilgan chizmani CAM dasturlariga o‘tqazish. Detalga mexanik ishlov berish usullarini tanlash. Ishlov berish parametrlarini kiritish. Boshqarish dasturlarini olish va dastgohga uzatish.

### **TA’LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI**

Ta’limni tashkil etish shakllari aniq o‘quv materiali mazmuni ustida ishlayotganda o‘qituvchini tinglovchilar bilan o‘zaro harakatini tartiblashtirishni, yo‘lga qo‘yishni, tizimga keltirishni nazarda to‘tadi.

Modulni o‘qitish jarayonida quyidagi ta’limning tashkil etish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruza;
- amaliy mashg‘ulot.

O‘quv ishini tashkil etish usuliga ko‘ra:

- jamoaviy;
- guruhli (kichik guruhlarda, juftlikda);
- yakka tartibda.

**Jamoaviy ishslash** – Bunda o‘qituvchi guruhlarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilib, o‘quv maqsadiga erishish uchun o‘zi belgilaydigan didaktik va tarbiyaviy vazifalarga erishish uchun xilma-xil metodlardan foydalanadi.

**Guruhlarda ishslash** – bu o‘quv topshirig‘ini hamkorlikda bajarish uchun tashkil etilgan, o‘quv jarayonida kichik guruhlarda ishslashda (3 tadan – 7 tagacha ishtirokchi) faol rol o‘ynaydigan ishtirokchilarga qaratilgan ta’limni tashkil etish shaklidir.

O‘qitish metodiga ko‘ra guruhni kichik guruhlarga, juftliklarga va guruhlarora shaklga bo‘lish mumkin.

*Bir turdagи guruhli ish* o‘quv guruhlari uchun bir turdagи topshiriq bajarishni nazarda to‘tadi.

*Tabaqalashgan guruhli ish* guruhlarda turli topshiriqlarni bajarishni nazarda to‘tadi.

**Yakka tartibdagi shaklda** - har bir ta’lim oluvchiga alohida- alohida mustaqil vazifalar beriladi, vazifaning bajarilishi nazorat qilinadi.

## **II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI**

### **“SWOT-tahlil” metodi.**

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	• kuchli tomonlari
W – (weakness)	• zaif, kuchsiz tomonlari
O – (opportunity)	• imkoniyatlari
T – (threat)	• to’siqlar

#### **Namuna:**

### **“Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi**

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, këptarmo?li, mumkin ?adar, muammoli xarakteridagi Mavzularni o‘rganishga qaratilgan.

Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

## Metodni amalga oshirish tartibi



trener-o'qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur b'elgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;



har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroficha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema b'eyicha tar?atmaga yozma bayon ?iladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotl bilan to'ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

### Namua:

Termodinamik tizimlar					
Ochiq		yopiq		Izolyatsiyalangan	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi

### Xulosa:

**"Insert"** metodi. Metodning maqsadi: Mazkur metod o'quvchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilmlarni o'zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida o'qllaniladi, shuningdek, bu metod o'quvchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o'taydi.

### Metodni amalga oshirish tartibi:

- o'qituvchi mashg'ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot k'erinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta'lif oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi;

➤ ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

<b>Belgilar</b>	<b>1-matn</b>	<b>2- matn</b>	<b>3- matn</b>
“V” – tanish ma’lumot.			
“q” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak			
“+” bu ma’lumot men uchun yangi.			
“– ” bu fikr yoki ma’lumotga qarshiman			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

### III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

**1. mavzu: Avtomobilsozlik va traktorsozlikda kompyuterli loyihalash (CAD-CAM-CAE) dasturlari bilan tanishish. Ularning dasturlarining tasniflanishi va darajalanishi.**

**Reja:**

- 1. Umumiy tushunchalar.**
- 2. Loyihalashtirish jarayyonlarini avtomatlashtirish.**
- 3. Loyihalash usullari.**




**Tayanch so‘z va iboralar:** CAD sistemasining asosiy mohiyati va ustunligi, CAD sistemasida ishlatiladigan terminologiyalarva modellashtirish texnologiyasi, Nimaga loyihalashtiruvchilar CAD sistemasini qo‘lda chizishga qaraganda maqul ko‘rishadi, Jarayondek loyihalashtirish, CAD sistemasining tarkibi, **CAD – ingliz tilida qisqartirilgan Computer Aided System** (loyihalash jarayonini avtomatlashtirish), shunga ko‘ra, **CAE – ingliz tilida qisqartirilgan Computer Aided Engineering** (muhandislik jarayonini avtomatlashtirish).

**Umumiy tushunchalar.** CAD sistemasi chizmachilikda ko‘proq ishlatilinadi, CAE bo‘lsa analiz qilishda foydalaniladi. CAD va CAE sistemalari ko‘pincha zamonaviy dasturiy ta’mnotlar yordamida CAD/CAE birgalikda ishlatilinadi. Zamonaviy muhandislar CADning ACAD, Pro - E, Solid Works, Turbo CAD turlaridan foydalaniladi. Lekin CAD sistemasining har bir turini yaxshi va yomon tomonlari bor, ularning bari bir analogli: Loyihalashtiruvchining g‘oyalarini reallashtirishga qarashish. CAD sistemasida ishlashni o‘ragnish uchun juda ko‘p vaqt kedati. Lekin,Loyihalashtiruvchilar CAD sistemasida ishlashni o‘rganganlaridan kegin, aerodinamika tekkisligi singari kabitdir. Bundan tashqari, loyihalashtirish jarayonini tushunish loyihalashtirishning asosiy jihatidan biridir. Loyihalashtirish voqtida sinov va hatoliklar bo‘ladi, lekin loyihalashtirishni yaxshi biladiganlar uchun sinov va hatoliklar soni oz bo‘lib, ishlab chiqarish nazariyasining effekti oshadi. Bu bobda CAD va CAE da loyihalashtirishni ko‘rib chiqamiz.

**Loyihalashtirish jarayonini avtomatlashtirish.** Loyihalashtirish bu mahorat. Ihtiro qila olish eng asosiy qisimdan iborat. Yangi loyihaning g‘oyalari bizning boshimizda joylashgan va u haqiqatdan ishlab chiqilishi kerak. Odatta qolda chizilgan chizmalardan foydalanib, chizma doskasidan quroldan ishlatalinadi, texnik qurollar, shablon va boshqalar. Hozirgi zamonaviy dunyoda ilg‘or tehnalogiyalar, o‘z ichiga kompyuterni qo‘sadi, OMI qurilmasi (odam-moshina interfeysi), qiyin dasturiy taminotlar yangi asosni yaratdi, «Loyihalash Jarayonini Avtomatlashtirish» deb nomlanadi. Takomillashgan CAD sistemasi tufayli, CAE sistemasi hosil bo‘ldi, qaysiki u orqali quyidagi kompleks tahlillarni qilish mumkin: Kuchlanish tahlili, Termik tahlili, Suyuqlik tahlili, Dinamik tahlil. Barcha tahlillarni Multi-Sim, ANSIS yoki Abacus dasturlaridan foydalanib bajarish mumkin. Bu qisimda Cadning foydali tomonini, uning ilovalarini hamda uning qo‘lda chizilgan chizmalardan ustunligini shuningdek barcha hollarga misollar keltirilgan hamda zamonaviy CAD sistemalarida ko‘rib chiqamiza. Bu qisimda aniqlashtirishlar va terminlar ko‘rsatilgan. Shunday qilib, CAD ning umumiyligi tushunish kitobning qolgan boblarini tushunishga yordam beradi.

**Aniqlashtirish:** CAD terminini muhandislarga loyiha jarayonida suratlarni chizishda va manipulyatsiyalashga (loyiha prototipi) yordam beradi.

2D yoki 3D rasmlarni yaratishni va manipulyatsiyalashni onsonlashtirish uchun, CAD har hil geometric modellarni taqdim etadi, shunday shablonlar, ramz va diogrammalar, qaysiki CAD sistemasining asosini tashkil qiladi. Birinchi o‘rinda geometric modellar abstract loyihalarni yaratishda hamda jarayonni hisoblashda yordam beradi. Zamonaviy loyihalashtirish jarayonlarida, CAD orqali modellashtirish CAE bilan birgalikda tekshiriladi. Tekshirish jarayonini maqsadidan kelib chiqib bitta model har xil ko‘rinishda berilishi mumkin. Misol uchun 1.1 rasmda shatunning asosiy ko‘rinishi ikki hil turda keltirilgan. Chap tomonda Statik va dinamik tahlillar uchun osonlashtirilgan kinematic model ko‘rsatilgan, o‘ng tomonda esa ChET (Cheklangan Element Texnikasi) kuchlanish va qarshilik tahlili chizilgan.



**1.1 rasm** Shatunning proyektlash jarayoniga qarab turli modellari tasviri.

### **1.3. Loyihalash usullari.**

Ushbu model bilan, dizayner faqat g‘oyalarini taqdim olmaydi, balki g‘oyalar va mahsulot ma’lumotlarni almashish uchun boshqa dizaynerlar bilan muloqot qilishi mumkin. Geometrik modellar ko‘pincha dizayneri tili, shuningdek geometrik modellar dizaynerlar bir-biri bilan muloqot qilish imkonini beradi, deb ataladi. Dizaynerlar turli SAPR dasturlarida o‘z dizaynlashtirilgan yaratish bo‘lsa ham, hamma narsa muhandislik intizom standartlashtirilgan geometrik modellashtirish, chunki, ular osonlik bilan, boshqa dizaynerlar aylanadi mumkin. Shunday qilib, geometrik modellar dizayni jarayonida ishtirokchilar o‘rtasida fikr almashish uchun ajoyib vosita hisoblanadi.

#### **Bu bilish muhim ahamiyatga ega (geometrik modellari ikki asosiy maqsadlari)**

- geometrik model loyiha
  - andozalar, ramzlar, grafika
  - dizayner Til
  - modellashtirish ahamiyati
1. Prezentatsiya
- mavhum g‘oyalar amalga oshirish
  - Hisob

2. Aloqa

    - dizayn jarayonida ishtirokchilar orasida g‘oyalar va loyihalarni almashinish

Aqlga kelgan Keyingi savol ", Nima uchun SAPR?». Lekin, dizaynerlar qo‘l chizilgan va diagrammalar bilan ikki asosiy maqsadlarga erishish mumkin, nima qaramay,

SAPR tizimlari dizayn jarayonining ko‘p jihatlari xizmat qilmoqda. Birinchidan, tizim dizayner dizayn jarayoni davomida ish faoliyatini oshirish SAPR. Bu g‘oya tushunish va haqiqatga ularni tarjima qilish yordam beradi. Bundan tashqari, joa tizimi tufayli, sinov muddati kamayadi. Ikkinchidan, SAPR tizimlari uchun foydalanish, keng tahlil qilish qobiliyatiga hisobidan dizayn sifatini oshiradi. Loyihaning jadal rivojlantirish SAPR tizimlari vositalari, tufayli, chiquvchilar eng optimal tanlash uchun ko‘proq muqobil loyihalarni o‘rganish va iste’molchilar talablariga javob mumkin. Uchinchidan, tufayli takomillashtirilgan tasvir, katta standartlashtirish va imlo xatolar kamaytirish - barcha hujjatlar sifatini oshirish. so‘nggi SAPR tizimlarida, Overlay, sabr-bardoshga, shuningdek, grammatik va belgilar tekshirishlarini tekshirib final o‘yini tekshirish bir tizim xatosi bor. To‘rtinchidan, eng zamonaviy SAPR tizimlari loyiha bevosita ishlab chiqarish bazalarini yaratish qobiliyatini ta’minlaydi. Bunday materiallar, butlovchi buyumlar ko‘lamiga geometrik xususiyatlariga va hatto moddiy xususiyatlari, ishlab chiqarish ma’lumotlar, kelajakda ishlab chiqarish jarayonida foydalanish uchun bevosita hosil bo‘lishi mumkin. geometrik modellashtirish ma’lumotlar, muhandis, loyiha-tadqiqot asosidir, va ba’zan ilg‘or SAPR tizimlari avtomatlashtirilgan tizimini rivojlantirish loyihasi qondirish mumkin - Nihoyat, SAPR tizimlari butun rivojlanish jarayonini osonlashtirish xususiyatlari turli xil taklif etamiz. 4."Nima uchun CAD?" CAD tizimlari tomonidan taqdim barcha bu xususiyatlar, savolga javob bor. 1.1-jadval SAPR tizimlari ish bilan qo‘lda chizilgan an’anaviy usullar bilan taqqoslash ko‘rsatadi.


### **1.1 jadval CAD bilan qo‘lda chizilganning farqi**

Qo‘lbola usul	CAD
muhandis tomonidan shurupdan tortib binogacha loyihalashtiriladi	Geometrik metod bilan aniqlashni taminlaydi
Monje loyihasi samalyotdek murakkab chizmalarda ishlatilinadi	Yagona tahlillar ishlatilinadi
Diagrammalar har qanday tizim vakillik qilish uchun foydalanish mumkin	Sezilarli darajada dizayn jarayonini kamayadi (bir vaqtning o‘zida muhandislik)
Loyihaning qurilish va aql ko‘nikma va tajriba talab qiladi	Minimal tajriba ish uchun zarur bo‘lgan, lekin u tahliliy ko‘nikmalarini

	talab
Qarama-qarshi yoki noto‘g‘ri modellari bor	Siz avtomatik ravishda har bir modelida xatolarini tekshiramiz
zamonaviy mahsulotlari bilan ishlashda qiyinchiliklar	murakkab zamonaviy mahsulotlari bilan ishlash uchun mos
Tadqiqot va ishlab chiqarish uchun qo‘sishma fikr yaratishda qiyinchiliklar	Osonlik bilan kelgusi jarayonlarni bajarish
Chizmalar chizmadagi hatolik yoki insoniy hatoliklar bilan hato tushunish mumkin	chizmani bajarishdagi yuqori aniqlik, tushunishdagi hatoliklar kamligi
Chizmaning o‘lchami qog‘ozning fizik tomonidan cheklanganligi	Chizmaning o‘lchami cheklanmagan

Jadvalda ko‘rsatilgan, muhandislar hali ko‘p oziq-ovqat uchun qo‘llanma o‘yini foydalananayotgan. Zamonaviy SAPR tizimlari yordamida qo‘l-o‘yinining asosiy tamoyillari eng. Biroq, SAPR tizimlari ko‘plab afzallikkarga ega. Misol uchun, shakl. 1,2 kompas bilan bir doira yaratish faqat bitta yo‘li bor, bir qo‘lda usuli esa, goh yordamida bir doira yaratish olti xil usullarini ko‘rsatadi.

5. Misol uchun, bir SAPR doira markazi va radiusi uch nuqta bilan, chiziqlar bilan chizish, markazi va ikki uchi nuqtaga va liniya ikki perpendikulyar yoki yuzaki (tomonlarini) nazaridan orqali chiziqlarga yordamida hosil qilinishi mumkin.



**Rasm 1.2** Doira yaratishning usullari.

SAPR tizimlari Agar bir vaqtning o‘zida dizayn jarayoni juda boshida va ishlab chiqarish jarayoniga loyihanening turli qismlarida ustida ish olib mumkin, bir davrda va

muhandislik, imkon sifatida. Bu iqtisodiy foyda va katta foyda yaratuvchisi beradi bozorida mahsulot yanada tez chekinishi beradi.

Shunday qilib, maqsad, kompyuter simulyatsiya uchun SAPR tizimlari foydalanish va turli loyihalar orasida majburiydir. Sana, dastur goh ikki aniq darajasiga. asosiy darajali Chad chizmalar, diagrammalar bilan ishlash uchun, shuningdek, loyihada ishlatiladigan buyumlar ro'yxatini yaratish uchun ishlatiladi. CAE tizimi bilan ikkinchi, yanada ilg'or darajasi, SAPR tizimi ilg'or dizayn imkonini beradi. Tez Prototipleme ko'pincha dizayn tekshirish va funktsional tekshirish uchun ishlatiladi.

### **Nazorat savollari**

- 1. Kirish.** SAD–avtomatlashtirilgan loyixalash tizimi.
- 2. Loyiha va loyihalash.** Loyihalash usullari. Loyihalashda modellash. SAD/SAYega misollar
- 3. Loyihalashda SALS, SASYe, STYeP texnologiyalar.**
- 4. Loyihalashda standartlar.** YeSKD, GOST, ISO, DIN, ANSI 14.
- 5. Model proektsiyalari**
- 6. Yotqazish va qo'yimlar asoslari (dopuski i posadki).** Val va teshik o'tqazishlari. Bazalar. Yuza tushunchalari. Yuza g'adir-budirligi, tozaligi
- 7. Uch o'lchamli geometrik modellash 3D.** Koordinatalar tizim. Chegaralar tasviri.

### **Foydalilanildigan adabiyotlar ro'yxati**

- 1. Dugan Um.** Soild Modeling and Applications. CAD/CAE. Rapid Prototyping/ Springer. United States of America, 2016.
- 2. Tulaev B.** Loyihalash jarayonlarini avtomatlashtirish. - T.:TDTU, 2008.

## **2-mavzu: CAD dasturlari ishlab chiqaruvchilar. Dasturlarning hozirgi vaqtdagi tahlili va ishlab chiqarishda qo'llanishi.**

### **Reja:**

- 1. Umumi tushunchalar**
- 2. CAD tizimli dasturlarni ishlab chiqaruvchilar.**
- 3. Dasturlarning hozirgi vaqtdagi tahlili va ishlab chiqarishda qo'llanishi.**
- 4. AutoCAD dasturi.**

**Asosiy qismi:** *Muhokama plani.* Siz CAD-CAM-CAE sistemasi orqali loyihalashni texnikasini o'rganishingiz kerak

**Tayanch so'z va iboralar:** *CAD sistemasining asosiy mohiyati va ustunligi Computer Aided System (loyihalash jarayonini avtomatlashtirish), shunga ko'ra*

**Umumi tushunchalar.** Xalqaro analitiklarning fikricha hozirgi zamon ishlab chiqarishida muvaffaqiyat qozonishning asosiy omillari bu: bozorga maxsulot chiqarishga ketadigan vaqtning qisqarishi, maxsulot tannarxining pasayishi va sifatning oshishidir. Bunday talablarga javob bera oladigan texnologiyalar qatorida avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari (ALT) turadi.

Avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari (ALT) keng qamrovli tushuncha bo'lib uni faqat chizmani avtomatlashgan tizim asosida loyihalash deb tushunmaslik kerak. Bugungi kundagi fan va ishlab chiqarishning tezkor suratdagi rivojlanishi ALTni uch bosqichdan iborat tizim sifatida o'rganishni va ishlab chiqarish jarayonida ham uch bosqichni qo'llashni taqozo etadi. Bu bosqichlar ingliz tilida CAD (computer aided design), CAM (computer aided manufacturing) va CAE (computer aided engineering) deb nomlanadi.

**CAD tizimli dasturlarni ishlab chiqaruvchilar.** CAD tizimlari (somputer-aided design - kompyuterda chizmani loyihalash) asosan kompyuterda chizma g'oyalarini loyihalash va konstruktorlik hujjatlarini rasmiylashtirishga mo'ljalangan. Odatda hozirgi zamon CAD tizimlari moduliga uch o'lchamli konstruktsiyalar (detallar)ni yaratish (loyihalash) va chizma konstruktorlik yozma hujjatlarini (spetsifikatsiya,

qaydnomalar va h.)ni rasmiylashtirish kiradi.CAM tizimlari (computer-aided manufacturing kompyuterda ishlab chiqarishni loyihalash) maxsulot ishlab chiqarish jarayonini raqamli dasturiy boshqaruv (RDB) dastgohlarda loyihalashga qaratilgan va ushbu dastgohlar uchun dasturlar yozishga mo‘ljallangan, ya’ni - frezerlash, parmalash, jilvirlash, tokarlik va shu kabi dastgohlar. CAM tizimlarini yana texnologik ishlab chiqarish jarayonlariga tayyorgarlik ko‘rish tizimlari deb ham tushunish mumkin. Bugungi kun amaliyotida ular murakkab profilli detallarni ishlab chiqarish va ishlab chiqarish jarayonini qisqartirishda yagona tizim hisoblanadi. CAM tizimlarida

### **CAD bilan qo‘lda chizilganning farqi**


1.1 jadval CAD bilan qo‘lda chizilganning farqi

<b>Qo‘lbola usul</b>	CAD
<b>Muhandis tomonidan shurupdan tortib binogacha loyihalashtiriladi</b>	Geometrik metod bilan aniqlashni taminlaydi
<b>Monjet loyihasi samalyotdek murakkab chizmalarida ishlatalinadi</b>	Yagona tahlillar ishlatalinadi
<b>Diagammalar har qanday tizim vakillik qilish uchun foydalanish mumkin</b>	Sezilarli darajada dizayn jarayonini kamayadi (bir vaqtning o‘zida muhandislik)
<b>Loyihaning qurilish va aql ko‘nikma va tajriba talab qiladi</b>	Minimal tajriba ish uchun zarur bo‘lgan, lekin u tahliliy ko‘nikmalarini talab qiladi
<b>Qarama-qarshi yoki noto‘g’ri modellari bor</b>	Siz avtomatik ravishda har bir modelida xatolarini tekshiramiz
<b>Zamonaviy mahsulotlari bilan ishlashda qiyinchiliklar</b>	Murakkab zamonaviy mahsulotlari bilan ishlash uchun mos
<b>Tadqiqot va ishlab chiqarish uchun qo‘srimcha fikr yaratishda qiyinchiliklar</b>	Osonlik bilan kelgusi jarayonlarni bajarish
<b>Chizmalar chizmadagi hatolik yoki insoniy hatoliklar bilan hato tushunish mumkin</b>	Chizmani bajarishdagi yuqori aniqlik, tushunishdagi hatoliklar kamligi
<b>Chizmaning o‘lchami qog’ozning fizik tomonidan cheklanganligi</b>	Chizmaning o‘lchami cheklanmagan

CAD tizimlari asosida loyihalangan maxsulotning uch o‘lchamli modellaridan foydalilanadi.

**Dasturlarning hozirgi vaqtdagi tahlili va ishlab chiqarishda qo‘llanishi.** CAE tizimlari (computer-aided engineering - muhandislik hisob-kitoblarni loyihalash) keng qamrovli tizim bo‘lib, ushbu tizimlarda aniq muhandislik hisoblash ishlari, ya’ni: mustahkamlik va bikrlikni hisoblash, issiqlik jarayonlarini analiz qilish va modellashtirish, gidravlik tizimlar va mashinalarni hisoblash ishlarini loyihalash, quyma jarayonlarini loyihalash kabi hisoblash ishlari olib boriladi. CAE tizimlarida ham CAD

tizimlari asosida yaratilgan maxsulotning uch o‘lchamli modellaridan foydalaniadi. CAE tizimlarini yana muhandislik tahlil tizimlari deb ham yuritiladi.



Bugungi kunda avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari (ALT) asoslarini bilish va uning vositalarini qo‘llay olish deyarli barcha muhandis ixtirochilardan talab etiladi. Kompyuter bilan barcha loyihalash tashkilotlari, konstruktorlik byurolari va ofislar jihozlangan bo‘lib, konstruktoring oddiy kul’man stolida o‘tirib loyihalashi, logarifmik lineyka bilan hisob-kitob ishlarini yuritishi, oddiy yozuv mashinkasida hisobot tayyorlashi bugungi kun uchun xos bo‘lmagan qoloqlik deb qaraladi. ALTni qo‘llamayotgan yoki qisman qo‘llab kelayotgan tashkilotlar loyihalashga ketqazgan katta sarf-xarajat va ko‘p vaqt yo‘qotish, shuningdek sifatsiz loyiha evaziga raqobatsiz bo‘lib inqirozga yuz tutishi muqarrardir.

ALT deganda kompyuter va inson muloqoti asosida loyiha yaratish tushuniladi. Bunday jarayon avtomatlashtirilgan hisoblanadi. Agarda jarayonni ma’lum bir qismi (etapi) to‘liq kompyuter nazoratida bajarilsa unda avtomatlashgan jarayon hisoblanadi. Kompyutersiz loyihalash esa qo‘lda loyihalash deb qaraladi.

ALT xorijda CAD (computer aided design - kompyuter yordamida loyihalash), MDHda esa САПР (системы автоматизированного проектирования) deb yuritiladi. Shuni ham esda tutish kerak-ki ALT yoki САПР tushunchasi juda keng ma’noda ishlataladi. Bunda faqat chizma loyihani tushunish xato bo‘ladi.

Dastlabki ALTning vujudga kelishi o‘tgan asrning 60 yillariga borib taqaladi. 1955-1959 yillarda MTI (Massachusetts texnologiya instituti)da Ross boshchiligida ART

(Automatical program tool - avtomatlashgan dastgoh dasturi) dasturlash tizimi yaratilgan. ART chip o'rnatilgan dastgohlarda uskuna uzunligi (parametri) kodini tavsiflash asosida dasturlash imkonini berar edi. Keyichalik dasturlashda dastgoh uskunasi uzunligini kodlash emas, balki detalni o'zini tavsiflash asosiy mezon qilib olindi. Bugungi ALTdan farqli o'laroq o'shanda EHMning o'sib borayotgan imkoniyatlaridan ko'proq foydalanish muhim qaraldi - ya'ni dasturlash tili o'rganib borildi. CAD tushunchasini ilk bor Ayven Sazerlend

ALTning rivojlanish bosqichlari:

1.70-yillarda ilk bor loyihalash sohasini kompyuterlashtirish mumkinligini ku'rsatgan ayrim natijalarga erishildi. O'sha davrda asusiy e'tibur avtomatlashtirilgan chizish tizimlari (AChT)ga qartildi.

2.80-yillarda mikro va superkompyuterlar avlodining kirib kelishi bilan AChT kichik firmalarga ham foydalanish imkoniyatini berdi. Chizma dastgohining display bilan almashishi ish vaqtি tezligining oshishiga - tajribali loyihachi ish samaradaorligini 3 baravar, rangli displayda esa 3,5 baravarga oshiradi. Bu davrda AChT ta'minotchilar avtomatlashtirilgan loyihalashda 3D modellashtirishni ham etkazib berishgan. Dastlab 3D da oddiy sirtlar yaratilgan bu'lsa keyinchalik qattiq jismlar tasviri ham yaratilishi boshlangan.

3.90-yillar ALTning balog'at davri hisoblanadi. Bu davrda ku'plab dasturiy noqulayliklar, xato va kamchiliklar bartaraf etilishi boshlandi. Hozirda loyihalashning butun jarayonini avtomatlashtirish, integratsiyalash borasida fikr yuritilmoqda. Loyihani avtomatlashtirishda shakl xususiyatlarini analiz qilish hal qiluvchi funksiya va murakkab operatsiya jarayonlarini bajara olish keskin rivojlanib borayotgan ALTda interfeysni oldingi u'ringa chiqarish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Bugungi kunda juda ku'plab grafik dasturlar mavjud bu'lib, ularni qaysi sohada qu'llanilishi bilan bir biridan farqlanadi. Har bir soha mutaxassislari u'z faoliyatlarini uchun qulay bu'lган grafik dasturni tanlaydilar. Dasturlarning imkoniyat chegaralari ham ma'lum bir sohaga yu'naltirilgan bu'ladi. Demak, grafik dasturni tanlashda avvalom bor uning imkoniyatlarini inobatga olish lozim. Aksariyat hollarda grafik dasturni qu'llashdan

oldin boshqa bir dasturlarni yoki fanlarni u'zlashtirishga ehtiyoj seziladi. SHunisi bilan ham grafik dasturlar murakkablashib boradi.

Kompyuterda geomterik modellashtirishda albatta geometrik yasashlarni, obektlarni geometrik tahlil qilishni bilish kerak. Bunday bilim va ku'nikmaga ega bu'lishda kishining fazoviy tasovvuri asosiy u'rinni tutadi.

Fazoviy tasovvur tom ma'noda kishi ongida ob'ekt va borliqni, turli g'oyalarni akslantirish, ularni ichki va tashqi tuzilishini, atrof-muhit bilan u'zaro munosabatlarini mantiqiy tizimlashtirish asosida mohiyatan tushunib etish demakdir. Inson ongida sodir bu'lgan va bu'limgan, mavjud va nomavjud ob'ektlar, turli voqealari va hodisalar doimo gavdalanim turadi. Biz bu holatni xayol deb bilamiz va ongimizdagagi tezkor xotirada ma'lum bir muddat saqlashimiz

«Kompyuter grafukasi» mumkin. Bunday ongimizdagagi akslanishlar tasovvur bo'lishi mumkin, lekin hali

fazoviy tasovvur bo'la olmaydi.

Fazoviy tasovvur o'z nomidan ko'rinish turibdiki fazo va undagi ob'ektlar bilan bog'liq jarayondir. Fazoviy tasovvur barcha insonlarda aqliy, ongli bo'lishi mumkin lekin uni tafakkuriy bo'lishi turli insonlarda turlicha bo'ladi. Aqliy va ongli deganimizda ob'ektlar, voqealari bizga ma'lum bo'lgan ko'rinishda akslansa, tafakkuriy deganimiz biz egallagan bilim, kuzatishlar asosidagi falsafiy fikr yuritishga asoslangan mantiqiy ko'rinishni aks ettiradi. Demak fazoviy tasovvurni rivojlantirish, o'stirish mumkin.

Fazoviy tasovvuri rivojlangan kishilar odatda ixtirochi, g'oyalarga boy, turli muammolar echimini bir nechta variantini taklif eta oladigan, kuchli fazoviy tassovur egalari esa faylasuf, olim kishilar bo'lishi mumkin.

Fazoviy tasovvurni rivojlantirishning asosiy omili bu - ob'ektlarni kuzatishda tizimli yondashish, ularni tahlil eta olishdir. Buning uchun esa insonda bilim, ilmiy malaka va ko'nikma bo'lishi zarur.


Quyida keltirilgan detal misolida ushbu fikrni izohlab ko'rsak. Murakkab geometrik figurali detalni sintez qilish asosida uning bir necha oddiy geometrik figuralar majmuasidan tarkib topganligini bilib olish mumkin (Rasm 2.1). Bular: 1

- o'yig'i mavjud kesik konus; 2 - to'g'ri doiraviy tsilindr; 3 - to'g'ri burchakli parallelepiped; 4 - o'yiqli to'g'ri burchakli ikkita parallelepiped; 5 - o'yiqli ikkita yarim tsilindrlar.

Bunga o'xshash ob'ektlarni tahlil eta olish natijasida ularni loyihalash, ishlab chiqarish ham murakkabdan oddiylikka printsipi asosida tizimlanadi.



Rasm 2.1



Rasm 2.1

Kompyuterda geometrik modellashtirish ob'ektlarni aynan geometrik tuzilishi asosida ularni yaratish demakdir. Yuqorida keltirilgan misol asosida biz ob'ektni oddi geometrik ob'ektlar majmuasi sifatida, ya'ni to'plamlarni birlashuvini ko'rib chiqdik. Xuddi shuningdek to'lamlarni yirmasi asosida ham ob'ektlarni geometrik tahlil etish mumkin.


**AutoCAD dasturi.** AutoCAD grafik tizimi Auto-Desk (AQSh) firmasi tomonidan ishlab chiqilgan, muhandislik-grafik ishlarini avtomatlashтирish uchun mo'ljallangan, shu sababli kompyuter bilan birga «elektron kulman»ni hosil qiladi.

- AutoCADning birinchi versiyasi paydo bo'lgandan beri u quvvatli muhitga

aylandi, usiz zamonaviy sanoat korxonasi yoki konstruktorlik byurosining ishini tasavvur qilib bo‘lmaydi. AutoCAD grafik tizimi Windows XP operatsion tizimga o‘rnataladi.

- 1. AutoCAD 2007 REDAKTORINI ISHGA TUSHIRISH VA UNING DARCHASI

Grafik tizim AutoCAD 2007 Windows XP operatsion tizimda ishga tushiriladi. Yuklangandan keyin ekranida 39-rasmida tasvirlangan ishchi makon (пространство)ni tanlash dialog darchasi paydo bo‘ladi.



39-rasm. Ishchi makonni tanlash darchasi


Unda *AutoCAD Classic* (*Классик стиль/Klassik stil*) yoki *3D Modeling* (*3D моделирование/3D modellash*) interfeyslarni tanlash mumkin. Dastlab *AutoCAD Classic* punktni tanlaymiz, chunki biz ikki o‘lchamli makonni o‘zlashtirishdan boshlaymiz.

So‘ngra darcha paydo bo‘ladi, uning yordamida dasturning yangi funksiyalari bilan tanishish mumkin. Unda *Yes* (*Да/Ha*), *Maybe later* (*Позже/Keyin*) yoki *No, Don’t me this again* (*Больше не показывать это окно/Bi darcha boshqa ko‘rsatilmasin*) ulab-uzgichlaridan birini tanlang va *OK* knopkasini shiqillating.

Keyin *Startup* (*Начало работы/Ish boshlanishi*) dialog darchasi paydo bo‘ladi. Bu dialog darchasining paydo bo‘lishi yoki bo‘lmashligi *Tools => Options* (*Сервис => Настройки/Servis => O‘rnatish*) komandasini bilan boshqariladi, *Startup* ro‘yxatidagi *General Options* (*Общие параметры/Umumiy parametrlar*) bo‘limning *System* (*Система/Tizim*) ilovasida *Show startup dialog box* (*Показывать диалоговое окно начала работы/Ish boshlanishi dialog darchasini ko‘rsatish*)ni tanlaymiz.

Yana shuni qayd qilish kerakki, indamaslik (по умолчанию) bo'yicha ishchi zona qora rangga ega bo'ladi. Qulay bo'lishligi uchun ishchi zonaning rangini qoradan oqqa (yoki sizga yoqqan boshqa rangga) almashtirish tavsiya etiladi.

*Display (Экран)* ilovasidagi *Tools => Options (Сервис => Опции)* komandasini tanlang va *Colors (Света/Ranglar)* knopkasida shiqillating. Keyin *Drawing Window Color (Окно светов чертежа/Chizma ranglari darchasi)* ochiladi –40-rasm. Ushbu dialog darchasida ekranning har bir elementi uchun rang o'rnatish mumkin.



40-rasm. Ishchi zona rangini tanlash darchasi


Indamaslik bo'yicha ikki o'lchamli ishchi zonaning rangi ro'yxatda birinchi bo'lib topiladi, shuning uchun *Color (Rang)* maydonida *White (Белый/Oq)* qatorni tanlang. *Apply&Close (Применить и закрыть/Qo'llang va berkiting)* knopkasida shiqillatib dialog darchasini yoping.

41-rasmida AutoCAD 2007 ning ishga tushirilgan ishchi darchasi ko'rsatilgan. Bunda sarlavha qatorida (ekranning chap yuqori burchagida) bo'lajak chizmaga avtomatik tarzda berilgan fayl nomi – Drawing 1 paydo bo'ladi.

Ekranda to'rtta funksional zonani ajratish mumkin:

- *Ishchi grafik zona* – bu ekranning o'rtasida joylashgan asosiy jabha, u yerda chizma bajariladi. Zonaning chap pastdag'i burchagida foydalanuvchi foydalanuvchi koordinatalar tizimining piktogrammasi joylashadi. Strelkalar yo'nalishi o'qlarning musbat yo'nalishiga mos keladi.

- *Tizimiyl menu va instrumentlar paneli.* Eng yuqorida sarlavha qatori, uning ostida esa – AutoCAD tizimiyl menyusining qatori joylashadi. Pastroqda instrumentlar panellari egallagan ikkita qator joylashadi. Ishchi zonadan chap tarafda instrumentlarning «suzuvchi» panellari **Draw** (Рисование/Chizish), **Modify** (Редактирование/Tahrir qilish), o‘ngda esa – **Dimension** (Размеры/ O‘lchamlar) joylashadi. Ularni ekranning istalgan joyiga siljитish mumkin. AutoCAD yana boshqa ko‘p instrumentlar panellari bor, ular zarurat bo‘yicha chaqiriladi.



41-rasm. AutoCAD 2007 ning ishchi darchasi

- *Komanda qatori.* Ishchi grafik zona ostida komanda qatori joylashadi. AutoCADning istalgan komandasini, uning nomini komanda qatorida terib, ishga tushirish mumkin. Agar komanda instrumentlar paneli pictogrammasi yoki menu punkti vositasida ishga tushirilgan bo‘lsa, komanda qatorida tizimning mos komandasiga reaksiysi aks ettiriladi. Bundan tashqari klaviaturadan kiritiladigan hamma narsa o‘sha zahoti komanda qatorida aks ettiriladi. Agar bilmasdan boshqa komanda chaqirilgan va joriy komandani bekor qilish zarur bo‘lsa, klaviaturadagi **Esc** klaviaturasini bosish mumkin.

- *Holat qatori.* Holat qatorida xoch(sichqon ko‘rsatkichi)ning joriy koordinatalari aks ettiriladi.

Bazaviy xarakteristikalarini yaxshiroq tushunish uchun kesma ko‘rinishidagi *grafik primitivni* keltirilgan instruksiya bo‘yicha chizishga harakat qilib ko‘ramiz.

AutoCAD komandalarini chaqirish menu yoki instrumentlar panellaridagi pictogrammalar yordamida amalga oshiriladi. AutoCAD 2007 versiyasida tizimiyl menu qatori quyidagi chiqib keluvchi menyulardan tarkib topadi:

- **File** (Файл/Fayl) – menuy fayl (chizma)larni ochish, saqlash, chop qilish, boshqa formatlarga eksport qilish va tizimdan chiqish uchun mo‘ljallangan;
- **Edit** (Правка/Tuzatish) – ishchi zonada chizma kesimlarini tahrir qilish (tuzatish) menyusi;
- **View** (Вид/Tur) – ekranni boshqarish, varaq va model makonlari rejimlarini uzib-ulash, uch o‘lchamli modellar uchun ko‘rish nuqtasini o‘rnatish, tonirovka qilish, display parametrlarini boshqarish menyusi;
- **Insert** (Вставить/Kiritib o‘rnatish) – boshqa ilovalardan bloklar va obyektlarni kiritib o‘rnatish komandasi menyusi;
- **Tools** (Инструменты/Instrumentlar) – tizimni boshqarish vositalari, chizma parametrlarini bog‘lanishlar va foydalanuvchi koordinatalar tizimini o‘rnatish menyusi;
- **Draw** (Черчение/Chizmachilik) – grafik primitivlar va uch o‘lchamli modellarni qurish menyusi;
- **Dimension** (Размер/O‘lcham) – o‘lchamlarni berish komandasi menyusi;
- **Modify** (Редактирование/Tahrir qilish) – grafik obyektlarni tahrir qilish menyusi;
- **Window** (Окно/Darcha) – ochilgan chizma(fayl)larni boshqarish va sortirovka qilish menyusi;
- **Help** (Справка/Ma’lumot) – ma’lumot menyusi.

Yangi chizma ustida ishlashdan oldin ishchi muhitni o‘rnatish lozim, ya’ni chizma ishchi maydoni o‘lchamlarini, o‘lchov birliklarini berish va koordinatalar tizimini o‘rnatish kerak va h.k. Buning uchun AutoCAD 2007 da ishchi muhitni o‘rnatish usta(мастер)si mavjud, u tizim yuklangan zahoti u ochiladi (**Startup**/Начало работы/Ish boshlanishi – darchasi). **Startup** dialog diagrammasining yuqori qismida (1.3-rasm) to‘rtta qator joylashgan:

- **Open a Drawing** (Открыть чертеж/Chizmani ochish) – chizmaning mavjud faylini ochish;
- **Start from Scratch** (Начать с нуля/Nuldan boshlash) – parametrlari indamaslik bo‘yicha AutoCAD tomonidan o‘rnatiladigan yangi chizmani yaratish;

- **Use a Template** (Использовать шаблон/Shablondan foydalanish) – yangi chizmada ilgari yaratilgan shablonlar parametrlarini o‘rnatish;
- **Use a Wizard** (Использовать мастер/Ustadan foydalanish) – yangi chizma parametrlarini o‘rnatishning qadamba-qadam jarayonini ishga tushirish; bunda o‘rnatishning ikkita varianti: detali – **Advanced Setup** va tezkor – **Quick Setup** bo‘lishi mumkin.

AutoCAD tizimida istalgan grafik primitivni qurish nuqtalar ketma-ketligini berishga asoslangan. Nuqtalar koordinatalari absolyut yoki nisbiy koordinatalar ko‘rinishida kiritilishi mumkin.

Absolyut koordinatalarni kiritish ikki formatda amalga oshiriladi:

- *to‘g‘ri burchakli (dekart) koordinatalari* (X, Y);
- *qutb koordinatalari* ( $r < A$ , bu yerda r – radius, A – soat strelkasiga teskari yo‘nalishda graduslarda berilgan burchak).

Nisbiy koordinatalar oxirgi kiritilgan nuqtadan X va Y o‘qlari bo‘ylab siljishni beradi. Nisbiy koordinatalarning kiritilishi absolyut koordinatalarni kiritishga o‘xhash bajariladi, lekin ularning oldida @ belgisi qo‘yiladi (@dx,dy – to‘g‘ri burchakli tizim, @ $r < A$  – esa qutb tizimi uchun). Sichqon kursonining joriy koordinatalari koordinatalar panelida holatlar qatorida (ekranning chapdagi pastki burchagi) aks ettiriladi.

Qutb rejimida chiziqlar turli burchaklar ostida o‘tkaziladi, ortogonal rejimda esa chiziqlar faqat koordinatalar o‘qlari bo‘ylab o‘tkaziladi. Bir rejimdan ikkinchisiga o‘tish holatlar qatoridagi **ORTHO** (ORTO) va **POLAR** (Полярный/Qutbiy) komanda knopkalarini sichqонни shiqillatish bilan amalga oshiriladi.

Chizma elementlari bilan ishlash qulay bo‘lishi uchun AutoCADda ekrandagi tasvirni boshqarishning turli komandalari mavjud. Ularning barchasi **View** (Вид/Tur) menyusida joylashgan. **Zoom** (Masshtab) komandasini ekrandagi tasvir masshtabini boshqaradi. Masshtab kattalashtirilganda ekrandagi hamma elementlar, go‘yo foydalanuvchiga yaqinlashgandek, kattalashadi. Masshtab kichiklashtirib berilgani sari tasvir maydoniga chizmaning tobora ko‘proq qismi tushadi. **Zoom** (Masshtab) komandasining opsiyalarini instrumentlarning standart panelidagi piktogrammalar

yordamida chaqirish mumkin (1.8-rasmga qarang). Quyida bu komandaning asosiy opsiyalari keltirilgan:

-  – **Zoom Window** (Увеличить до окна/Darchagacha kattalashtirilsin). Opsiya ramka yordamida masshtablanayotgan tasvir chegaralarini berish imkonini beradi;
-  – **Zoom In** (Увеличить/Kattalashtirilsin). Opsiya sichqon pictogrammada har shiqillatilganida tasvirni ikki marta kattalashtiradi;
-  – **Zoom Out** (Уменьшить/Kichiklashtirilsin). Opsiya sichqon pictogrammada har shiqillatilganida tasvirni ikki marta kichiklashtiradi;
-  – **Zoom All** (Показать все/Hammasi ko‘rsatilsin). Opsiya tasvirni shunday masshtablaydiki, chizma chegaralari ekranning grafik zonasi bilan ustma-ust tushadi;
-  – **Zoom Extents** (Показать все объекты/Hamma obyektlar ko‘rsatilsin). Opsiya chizmada mavjud bo‘lgan hamma grafik elementlarni ko‘rsatish imkonini beradi;
-  – **Zoom Preview** (Предыдухий масштаб/Oldingi masshtab). Opsiya masshtablashning oldingi parametrlarini tiklaydi;
-  – **Zoom Realtime** (Масштаб в реальном времени/Real vaqt masshtabi). Opsiya ekrandagi tasvir masshtabini boshqaradi;
-  – **Pan Realtime** (Перемещение в реальном времени/Real vaqtda siljish). Opsiya panoramalashni boshqaradi.

**View => Redraw** (Вид => Перерисовать все/Ko‘rinish => Hammasi qaytadan chizilsin) komandasasi ekrandagi tasvirni qaytadan chizish imkonini beradi.

AutoCAD tizimida istalgan tasvir ikki o‘lchamli primitivlarning bazaviy to‘plami yordamida yaratiladi. Ularni chizish uchun komandalar asosiy menyuning **Draw** (Черчение/Chizish) nimmenyusida joylashadi. Lekin grafik primitivning komandasini **Draw** (Ченчение/Chizish) instrumentlar paneli pictogrammasi yordamida chaqirish eng oson bo‘ladi. Agar bu panel mavjud bo‘lmasa, sichqonning o‘ng knopkasini instrumentlar panelining istalgan pictogrammasida shiqillatib uni chaqirish mumkin. Bunda ekranda konteksti menu paydo bo‘ladi, undan **Draw** qatorini tanlab olish lozim.

Istalgan grafik primitiv chizmaning ma'lum qatlamida muayyan tur, qalinlik va rangdagi chiziqlar bilan chizilishi mumkin. Bu xossalarni berish uchun instrumentlar **Layers** (Слои/Qatlamlar) va **Properties** (Свойства/Xossalar) panellarida joylashgan. Ekranda chiziq qalinligining aksini holatlar qatoridagi **LWT** (ТОЛХ/QALIN) knopkasi bilan ulash yoki uzish mumkin.

Tizim yuklangandan keyin hamma primitivlar uchun avtomatik tarzda nulinchi qatlam o'rnatiladi, unda primitivlarning rangi – qora, chizig'i – asosiy turdag'i chiziq **Continuous** (Сплошная/Uzluksiz), qalinligi **Default** (По умолчанию/Indamaslik bo'yicha) bo'lib o'rnatiladi. Instrumentlar paneli **Properties** (Свойства/Xossalar)ning chiziqlar rangi, turi va qalinligi piktogrammalarida **ByLayeg** (По слову/Qatlam bo'ylab) qatori o'rnatiladi, bu ularning joriy nulinchi qatlamdagi o'rnatishlarga mosligini bildiradi.

**Chizmachilik uchun geometrik elementlar.** Istalgan chiziq to'g'ri chiziq kesmalari va egri chiziq yoylaridan tuziladi. Chizma to'g'ri chiziqli uchastkalarini chizish uchun Line (Линия/Chiziq), Constraction Line (Конструкционная линия/Konstruksion chiziq), Polyline (Ломаная/Singan chiziq), Polygon (Многоугольник/Ko'pburchak), Rectangle (Прямоугольник/To'g'ri burchakli to'rtburchak), Point (Точка/Nuqta) instrumentlari xizmat qiladi. Egri chiziqli uchastkalar Arc (Дуга/Yoy), Circle (Окружность/Aylana), Spline (Splayn), Ellipse (Ellips) instrumentlari yordamida quriladi.

**Draw** (Черчение/Chizish) instrumentlar panelidagi piktogrammalarini bo'yicha primitivlar chizish komandalarini (chapdan o'ngga) bayon qilamiz.

## Nazorat savollari

1. ALT nima?
2. CAD tizimi nima?
3. CAM tizimida qanday modellardan foydalaniladi?
4. CAE tizimida qanday ishlar olib boriladi?
5. ALTning rivojlanish bosqichlari qaysi davrlarni o'z ichiga oladi?
6. Fazoviy tasovvur deganda nimani tushunasiz?
7. Geometrik modellashtirish nimaga asoslangan?

## **Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Dugan Um. Soild Modeling and Applications. CAD/CAE. Rapid Prototyping/ Springer. United States of America, 2016.
2. Prentice Hall .Computer design. Principles of CAD CAM CAE systems. University of Southern California (Viterbi) USA, 2013
3. Kunwoo Lee. Principles\_of\_CAD\_CAM\_CAE\_systems. Addison-Wesley 2013
4. Tulaev B. Loyihalash jarayonlarini avtomatlashtirish. - T.:TDTU, 2008.
5. Malyux V.N. Vvedenie v sovremennie SAPR:- M.: DMK Press, 2010.- 192 s

### **3-maruza. CAM dasturlari ishlab chiqaruvchilar. Dasturlarning hozirgi vaqtdagi tahlili va ishlab chiqarishda qo‘llanishi.**

#### **Reja**

1. Umumiy tushunchalar
2. CAM dasturlari ishlab chiqaruvchilar.
3. Dasturlarning xozirgi vaktdagi taxlili va ishlab chikarishda qo‘llanishi.
4. Kompas-3D dasturi

**Tayanch so‘z va iboralar:**CAM–ingliz tilida qisqartirilgan computer-aided manufacturing (avtomatlashtirilgan ishlab chikarish), shunga kG‘ra

**Umumiy tushunchalar.** Zamonaviy korxonalar agar eng yaxshi sifatli, tannarxi arzonroq bo‘lgan, yangi mahsulotni qisqa vaqt oralig‘ida tayyorlab chiqarishmasa, ular butun dunyo raqobatiga bardosh bera olmaydilar. Shu sababli ular loyihalash va ishlab chiqarish masalalarini avtomatlashtirish va bir-biriga bog‘lashda grafik interfeysning ulkan imkoniyatlaridan foydalanishga intilishmoqda. Bunda yangilikni va mahsulotni ishlab chiqarish vaqtqi qisqaradi, tannarxi arzonlashadi.

**CAM dasturlari ishlab chiqaruvchilar.** Avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish (CAM) – bu korxonaning ishlab chiqarish resurslari bilan bevosita yoki bilvosita interfeys orqali ishlab chiqarish operatsiyalarini rejalash, boshqarish asoslangan texnologiyadir. Sonli-raqamli dasturiy boshqarish (numerical control – NT) – ishlab chiqarishni avtomatlashtirishga bo‘lgan eng yetuk yondoshuvlardan biridir. Sonli-raqamli boshqaruv –

bu stanokni boshqarish uchun dasturlashtirilgan komandalardan foydalanishdir; stanok jilvirlash, kesish, frezerlash, shtamplash, parmalash va boshqa usullar bilan xomakini tayyor detalga aylantiradi. Hozirgi paytda kompyuterlar CAD ma'lumotlar bazasidagi buyumlarning geometrik parametrlari va operator taqdim etayotgan qo'shimcha ma'lumotlar asosida sonli-raqamlı dasturaviy boshqariluvchi stanoklar uchun katta dasturlarni generatsiya qilishga qodir.


### **Dasturlarning xozirgi vaktdagi taxlili va ishlab chikarishda qo'llanishi.**

Avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlarining yana bir ahamiyatli funksiyasi – robotlarni dasturlashdir, ular sonli-raqamlı dasturaviy boshqariluvchi stanoklarga asboblar va ishlov beriladigan detallarni o'rnatib, avtomatlasingirilgan moslanuvchan uchastkalarda ishlashi mumkin. Robotlar o'zlarining xususiy vazifalarini ham bajarishi, masalan, payvandlash, jihozlar va detallarni yig'ishi va ularni sex bo'yab tashishi mumkin.

Jarayonlarni rejalashtirish ham asta-sekin avtomatlasingirilmoqda. Jarayonlar rejasi qurilmani tayyorlash bo'yicha operatsiyalar ketma-ketligini boshidan oxirigacha hamma zarur bo'lgan jihozlarda aniqlash mumkin. Jarayonlarni rejalashtirishni to'liq avtomatlasingirish amalda mukin bo'lmasa ham, muayyan detalga ishlov berish rejasi, agar shunga o'xshash detallarga ishlov berish rejasi bor bo'lsa, avtomatlasingirilishi mumkin. Buning uchun guruhlash texnologiyasi ishlab chiqilgan, u o'xshash detallarni oilalarga birlashtirish imkonini beradi. Agar detallar umumiyligi ishlov berish xususiyatlari (o'rindiqlar, pazlar, faskalar, teshiklar va h.k.)ga ega bo'lsa, ular o'xshash hisoblanadi. Detallar o'xshashligini bilib olish uchun CAD ma'lumotlar bazasi shunday xususiyatlarni haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Bu vazifa obyektga yo'nalgan modellash yoki elementlarni tanish yordamida amalga oshiriladi.



**Kompas dasturi.** KOMPAS (kompleksnaya avtomatizirovannaya sistema) tizimi «ASKON» kompaniyasi mahsuloti bo‘lib, hozirda 400dan ortiq ta’lim muassalari va 300 ga yaqin tashkilotlarda ishlataladi. Bu tizimning tarkibiy qismlari quyida keltirilgan



42-Rasm. Kompas dasturining tasniflanishi


Kompas tizimi tizimi boshqa ALTlardan o‘zining parametrik holda loyihalashi va modellarni Solid yadrosida bajarishi tufayli keng qo’llanilmoqda. Solid yadrosida bajarilgan modellar hozirgi mashinasozlikning yuqori ALT hisoblangan Pro/ENGINEER, CATIA, Unigraphics, SolidWorks tizimlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqani ta’minlaydi. Bu ALTlarning hozirda bir-biri bilan o‘zaro CAD/CAE/CAM/PDM (CAD-kompyuter yordamida konstruktsiyalash, SAE-kompyuter yordamida injenerlik tahlililarni bajarish, SAM-texnologik jarayonlarni kompyuterda bajarish, PDM- loyiha ma’lumotlarini

boshqarish tizimi) tizimidagi integratsiyasi, modulligi e'tiborga loyiqdir. Bu esa ularning ta'sir doirasini kengaytirish, ALT bozorida yuqori o'rinni egallashi imkonini beradi. Shu bilan birgalikda ularning ta'lim muassasalari bilan aloqasi kelajakdagi rivojini belgilaydi. Chunki ta'lim tizimida hozirgi yuqori ALT - Pro/ENGINEER, CATIA, Unigraphics, SolidWorks tizimlarni o'quvchilarni o'rgatish va ishlash muammodir. Bunga sabab, bu tizimlarning katta mablag' talab qilishi (faqat server-klient tizimda ishlashi), bizdagi standartlarga mos emasligi va asosiysi bizdagi tashkilotlardan bu mutaxassisliklarga talab yo'qligidir. Quyida Kompas dasturi bilan qisqacha tanishish berilmoqda: Uni yuklash ikki usulda amalga oshirilishi mumkin.

*Pusk→Programмы→Kompas 5.11→Kompas 5.11*

*yoki ishchi stolda joylashgan dastur yorlig'i orqali*

Dastur yuklangandan keyin, uning interfeysi (foydalanuvchi bilan muloqot oynasi) asosiy elementlari quyidagicha Amaliy mashg'ulot bajarilishi:



43-Rasm. Kompas dasturi interfeysi

## **4-maruza. Traktor va QXMIlarni loyixalashda konstruktsiyalar og‘irligi va metal sig‘imi masalalari**

### **Reja**

- 1.** Ratsional kesim.
- 2.** Detallarni yengillatish.
- 3.** Konstruktsiyalar ixchamligi

**Tayanch so‘z va iboralar:** Nisbiy og‘irlik ko‘rsatkichi, metall sig‘imi, egilish, buralish va murakkab kuchlangan, qarshilik momenti, inertsiya momenti

**Ratsional kesim.** Og‘irlik mashinani muhim ko‘rsatkichi xisoblanadi. Bu asosan transport mashinasozligi, asosan aviatsiyada muhim urin tutadi, bunda har bir ortiqcha kilogramm yukni kutaruvchanligi, tezlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Umumiy mashinasozlikda mashinani og‘irligini pasaytirishda metall sarfini kamaytirish va tayyorlash tannarxini kamaytirishga olib keladi.

Ayniqsa ommaviy ishlab chiqarishda bu ko‘rsatkich muhim urin tutadi va xalq xo‘jaligida katta mikdorda metallni iqtisod qilish mumkin.

Bir xil vazifani bajaruvchi mashinalarni takkosiyl og‘irlik sifatini ***nisbiy og‘irlik ko‘rsatkichi*** – deb kabul qilingan. Energiya ishlab chikaruvchi mashina generatorlar uchun asosiy parametr bo‘lib quvvat N xisoblanadi. Bunday mashinalarni nisbiy og‘irligi.

$$g = \frac{G}{N}$$

Bu yerda: G – mashina og‘irligi; N – quvvat.

Bu ko‘rsatkich mashinani konstruktivlik darajasini hamda yengil kotishmalar va nometal materiallarni kullanganlik darajasini ko‘rsatadi.

Ichki yonuv dvigatellarida nisbiy og‘irlik quyidagi qiymatga ega: Statsionar dvigatellar uchun 8-15, kema dvigatellari uchun 3-8, avtomobil dvigatellari uchun 2-5, va aviatsiya dvigatellari uchun 0.5-0.8 kg/e. ot kuchi.

Transport mashinasozligida konstruktsiyani og‘irlik ko‘rsatkichi harakteristikasi uchun konstruktsiya og‘irligini foydali yukka nisbati ko‘rsatkichi kullaniladi. Bu ko‘rsatkich kema transporti uchun 20-30, temir yo‘l transporti uchun 10-20, avtomobil transporti uchun 3-5, samolyotlar uchun 1.2-2.5 ga tengdir.

Og‘irlik tushunchasidan metall sig‘imi tushunchasi farklidir. Bunga quyidagimisolda aniqlik kiritamiz. Agar ikkita bir xil o‘lchamli va bir xil parametrli mashinalardan biri og‘ir metallardan (pulat, chuyan), ikkinchisi yengil kotishmalardan (alyuminiy) tayyorlangan bo‘lsa, u xolda ikkinchi mashina og‘irligi birinchi mashina og‘irligidan shuncha kamki, og‘ir materiallar nisbiy og‘irligi yengil metallar nisbiy og‘irligidan katta bo‘lsa (takriban ikki marta), shuncha kam bo‘ladi. Metall sig‘imi esa, ikkala mashinada ham bir xil.

Mashinalar og‘irligini metall sig‘imini kamaytirish bilan, ya’ni detallarga ratsional kesim va forma berish bilan, bunda albatta metall mustaxkamligini ta’minalash uchun mustaxkam metall ratsional konstruktiv sxemalar kullaniladi va metallar nometal materiallar bilan almashtirish usuli bilan kamaytiriladi.


Detallar og‘irligini maksimal darajada kamaytirish ularga teng mustaxkamlikni ta’minalash bilan erishiladi. Bunda detallni har bir kesimdagи kuchlanishi (buylama uk buylab) va shu kesimni har bir nuktasidagi kuchlanishi bilan bir xil bo‘lishi kerak.

Egilish, buralish va murakkab kuchlangan xolatda kesimlarda kuchlanish notekis taksimlanadi. Ular kesimni chetki nuktalarida maksimal qiymatga ega bo‘ladilar, boshqa xolatlarda nulgacha kamaytirish mumkin (misol uchun kesimni neytral ukida). Bu xolatda tulik teng mustaxkam kesim bo‘yicha kuchlanishini tenglashtirish, eng oz kuchlangan uchastkadagi metalni kamaytrish va uni eng ko‘p kuchlangan (yuklangan) uchastkada ko‘paytirish yo‘li bilan erishiladi.

Misol uchun egilish va buralishga ishlayotgan tsilindr detali olamiz (7-rasm). Massali og‘ir detallarda kuchla-ish butun yumalok kesimda *to‘g‘ri liniya* konuni bo‘yicha taksimlanadi (6.1,a-rasm), (bunda kuchlanish kesimni markazi buylab utadi).


Kam yuklangan detal markazidan metallni olib tashlash, ya’ni unga koltsa kesimli shakl berishda ta’minalanadi (7,b-rasm). Koltsa devori kancha yupka bo‘lsa d/D nisbat shuncha

katta (ichki diametrni tashqi diametrغا nisbati) bo‘ladi va kuchlanish shuncha tekis taksimlanadi. Tashqi diametr o‘lchamini doimiy saklab kolish natijasida devorlarda kuchlanish ortadi. Ammo boshqa diametrni kattalashtirib oldingi kuchlanish xolatini saklab kolish mumkin (7,v-rasm), xatto ular qiymatini ancha kamaytirish mumkin (7,g-rasm).



7 - rasm. Tulik va ichi bush tsilindrsimon detallar kesimida kuchlanishni taksimlanishi.

Bir xil maydonli profillarda og‘irlikni kamaytirish 8-rasmida keltirilgan. Bunda eng ratsional kesim formasi (ichi bush va dvutavrli) yuqori mustaxkamligi va kattaligi bilan farklanadi.




8 – rasm. Qarshilik momenti W va inertsiya momenti I larni tulik va bush profilli teng kesimli profillardagi xolati.

**Detallarni yengillatish.** Ko‘pchilik xolatlarda detallar konstruktsiyasi murakkabligi yoki ularga ta’sir kilayotgan kuchlanishlarni aniqlash imkoniy yukligi sababli mustaxkamlik shartini ta’minlash kiyinchilik tugdiradi. Bunday xolatlarda detal og‘irligini detalni oz kuchlangan uchastkasida metalni olib tashlash bilan erishiladi. Detallarni yengillatishga misollar 6.3 va 6.5 – rasmlarda keltirilgan.

6.3 a –rasmda tirsakli val tirsagi keltirilgan. Tirsak 1 ni tashqi burchaklari shatun buynidan asosiy buyniga utayotgan kuchlarda xech qanday rol uynamaydi; bu

burchaklarni olib tashlash II-tirsakda tirsakni mustaxkamligini kamaytirmagan xolda uni og‘irligini kamaytirib yengillatishga imkon beradi.

Konusli tishli g‘ildirak (9 – rasm) ni tishlarini kichik diametr tomonida umuman ishlamayotgan qismini olib tashlash mumkin. Bunda og‘irlikni kamaytiribgina kolmay, balkim tishlarni kamaytirish, tish uzunligi bo‘yicha bosimni teng taksimlanishi va urta diametrni usishi natijasida tishlarga kuchni kamaytiradi ham.



9 – rasm. Detallar va birikmalarni yengillatishga misollar.

a-tirsakli valni; b-flanetsli valni; v-klemmali birikmani; g-konusli tishli g‘ildirakni; I-boshlang‘ich xolati; II-III-engillatilgan konstruktsiya.


Flanets tipidagi detallar og‘irligini kamaytirish, uni tashqi konturini o‘zgartirish bilan erishiladi (9-rasm). Bunda maxkamlov teshiklari radiusi barcha barcha xollarda bir xil kabul qilingan.

Detallarni alohida elementlari uchastkalarida ortiqcha metallni olib tashlashga, agar ular juda oz bo‘lsa ham e’tibor berish kerak. Bu har bir xolatda oz bo‘lgani bilan, butun bir konstruktsiyada juda katta bo‘lishi mumkin.

Bunda asosiy e’tiborni maxkamlovchi detallar og‘irligiga karatish kerak, bu esa uz navbatida mashina og‘irligini kamaytirishda katta urin tutadi. Bundan tashqari maxkamlash detallariga boshqa forma berish, bu ularni texnologiyaviyligi va mustaxkamligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Misol uchun 10 k –rasmida tortish bolti misoli keltirilgan. Konstruktsiyani yengillatish II, fakatgina og‘irlik bo‘yicha yengil va tsiklik yuklanishlarda uta mustaxkamdir, asosan rezba nakatka usulida bajarilgan, sterjen esa rotatsion bolgalash mashinasida tayyorlangan bo‘lsa.

Prizon bolt misolida (10 1 –rasm) sterjen diametrini kamaytirish bilan aniq mexaniq ishlov berish xajmini kamaytiriladi.

Og‘irlikni kamaytirish katta rol uynaydigan mashinalarda yengillatilgan gaykalar va radial o‘lchamlari kichiklashtirilgan bolt golovkalari katta rol uynaydi.




10 –rasm. Konstruktsiyalarni yengillatish usullari.


### 3. Listli shtamplangan konstruktsiyalar

Listli shtamplangan konstruktsiyalarni mashinalarda qo‘llash og‘irlikni kamaytirish usullaridan asosiysi xisoblanadi (6.6-rasm). 6.6-rasmda keltirilgan detallarga uxhash aylanma shaklli detallar tokarlik dastgoxlarida raskatka usuli bilan (mayda seriyali, yakka ishlab chiqarish sharoitida) yoki shtamplash usuli bilan tayyorlanadi. Yirik seriyali yoki ommaviy ishlab chiqarish sharoitida bunday detallar listli shtamplash usuli bilan shtamplarda tayyorlanadi (hit, panel, kojux, diafragma, oblitsovka va x.k.)

Shtamplash usuli bilan olingan detallarda kamaygan mustaxkamlikni releflar, otbortovkalar, mustaxkamlik profili, payvandlash usuli bilan oshiriladi.



11- rasm. Detalni elementlarini yengillatish usulari. a- valni tayanch burtigini; b- teshik tayanch burtigini; v-elkani; g- disk va vtulka tipidagi detallarni; d-val chetini; ye-maxkamlangan gaykasini; j-koltsasimon gaykani; z,i – tikan tipidagi detalni; k- maxkamlash boltini; l-prizon boltni; I-boshlang‘ich konstruktsiya; II va III yengillatilgan konstruktsiyalar.




12- rasm. Kuyma usulida tayyorlangan detallarni shtamplashusuli bilan tayyorlangan detallar bilanalmashadirish.

Plastik metallardan tayyorlanadigan detallarni (past uglerodli pulatlar, dyuralyuminiy yangi tayyorlangan xolatida) 3-4 mm.gacha kalinlikka ega bo‘lgan listdan sovuk usulda shtamplash usuli bilan, 4 mm.dan yuqori kalinlikka ega bo‘lgan listlarni esa issik shtamplash usuli bilan tayyorlanadi.

Ko‘pchilik xolatlarda korpus detallar og‘irligini kamaytirish maqsadida *skelet* konstruktsiyalar kullaniladi. Kuymada detalni uzaro aniq joylashuvi talab kilinadigan

elementlarga tayyorlanadi xolos. Tayyor bo‘lgan skeletni listli materiallardan koplamlar (oblitsovka) bilan koplab chiqiladi. Po‘lat oblitsovkalarni tashqi maxkamlash detallarisiz koplash 13a- rasmda keltirilgan.



13-rasm. Qo‘yma korpuslarga oblitsovkalarni maxkamlash usuli.

### **Traktor va QXM larni loyixalashda konstruktiv sxemalarini yaxshilash**


Mashinalar og‘irligini konstruktiv sxemalar detallari sonini kamaytirish va konstruktsiya gabaritlarini kamaytirishga hamda ixchamligini taminlash uchun kuch okimini to‘g‘ri tanlash bilan ham taminlanadi.

**Zvenolar sonini kamaytirish.** Mexanizmni ortiqcha zvenolaridan voz kechish, agregat og‘irligini kamaytirishga katta xissa kushadi. Bunga misol uchun porshenli dvigatelda kullanilgan *kreytskorfni* olish va mumkin (14a – rasm). Kreytskorf porshenli dvigatelda tsilindr devorlariga yon kuchlar tasirini kamaytirish maqsadida kullanilgan. Izlanishlardan sung shu narsa malum buldiki, agar porshen uzunligini oshirilsa va maoylash yaxshilansa, u xolda kreytskorf vazifasini porshenni o‘zi bajarishi mumkin ekan va kreytskorfni qo‘llashga xojat kolmaydi. Kreytskorsiz dvigatellar (14 b – rasm) kariyb 2 marta kichik balandlikka ega bo‘lib, agregat ixchamligi yengillagini taminlaydi.


Yana misol uchun kulachokli mexanizmni olish mumkin (14a,b-rasmlar) 14a-rasmda keltirilgan konstruktsiyada kulachok koromysisloga tolkatel orqali ta’sir qiladi. Ko‘pchilik xolatlar koromysislo kulachok ratsional sxemasini qo‘llash mumkin (14b-rasm) detallar soni va gabarit o‘lchamlarni kamaytirish bilan bir katorda bu sxema koromysloni kulochok bilan va kuchlarni yaxshi birikishini ta’minlaydi. Birinchi konstruktsiyada kuchlar h-uchastkada birikadi va bunda oralik detallarni masofa katta bo‘lganligi uchun soni va uta mustaxkamligi (egilish) talab kilinadi. Ikkinchi konstruktsiyada esa h1-

uchastka ancha kichik bo‘lgani uchun oralik detallar bartaraf etilib, konstruktsiya og‘irligi yana kushimcha ravishda yengillaydi.

Konusli tishli g‘ildirakli vallar uzatmasi (14-rasm) ortiqcha zvenolarni bartaraf etish bilan konstruktsiya og‘irligi kamaytiriladi va tishli g‘ildiraklar soni 4 tadan (14 a rasm) 1 taga keltiriladi (15b – rasm).



14-rasm. Porshenli  
dvigatel-larda ortiqcha  
zvenolarni bar-taraf etish




15-rasm. Kulachokli  
mexanizmda ortiqcha  
zvenolarni barta-raf etish.

**Konstruktsiyalar ixchamligi.** Mashinani xajmi va gabaritlarini kamaytirish maqsadida, uni mexanizm va detallarini ratsional joylashtirish muhim urin tutadi va uni og‘irligini kamaytirishga katta xissa kushadi. Misol uchun ikki pogonali reduktorni olish mumkin (16-rasm). Misolda boshlang‘ich konstruktsiya (16a-rasm). Vallarni ko‘pkavatli ko‘rinishda «Trafaret» sxemasi bo‘yicha taylorlangan bo‘lib, konstruktsiyadagi tishli g‘ildirak 4 ni boshlang‘ich g‘ildirak 1 bilan ukdosh qilib (16b-rasm) urnatilsa konstruktsiya ancha ixcham va yengil bo‘ladi. Bundan tashqari g‘ildiraklar 1 va 4 ni bunday joylashuvi oralik g‘ildiraklar 2 va 3 ga tushaetgan kuchni ancha kamaytirib, podshipniklar ishini yengillatadi va korpus devorlariga tushaetgan kuchni ham kamaytiradi.


Bundan tashqari 16 a-rasmdagi sxema bo'yicha uzatmani boshlang'ich gildiragidan oxirgi gildira-giga 2 va 3 ga tushayotgan kuchni bir muncha kamaytirib podship-niklar ishini yengillashtiradi va korpus devorlariga tushayotgan kuchni ham kamaytiradi.

Bundan tashqari 164 a – rasmdagi sxema bo'yicha uzatmani boshlang'ich gildiragidan oxirgi gildiragiga uzatilayotigan  $R_1$  va  $R_2$  kuchlar fakat bir yo'nalishga yunalgan. Bunda R- kuch katta qiymatga ega. 7.4 b-rasmdagi sxemada kuchlar  $R_1$  va  $R_2$  turli tomonlarga yunalgan bo'lib, bunda R juda kichikdir.

Kelgusida mexanizmni og'irligi va gabaritlarini tishli g'ildiraklar diametrini kichiklatish bilan kamaytirish mumkin (16 v-rasm).



16-rasm. Tishli uzatmada ortiqcha zvenolar sonini kamaytirish usuli.




17 – rasm. Ikki pogonali reduktor og'irligini kamaytirish.

**Mashina parametrlarini ratsional tanlash.** Mapshina parametrlarini to'g'ri tanlash katta yutuklarga olib keladi. Bunga misol uchun 18-rasmda bir xil quvvatga ega bo'lgan

ichki yonuv dvigatellari ko'rsatilgan. Bunda ichki porshen yo'lini tsilindr diametriga nisbati  $S/D=1,5$  (7.5 a-rasm) va  $S/D=1$  (18 b-rasm).

Kiska yo'lli mashinalarni balandligini yana quyidagi kushimcha choralarni kullab erishish mumkin: Porshen balandligi  $H$  ni kamaytirish bilan (18 b-rasmda  $H=0,75D$ . 7.5 a-rasmda  $H=D$ ): Shatun uzunligi  $LH$  krivoship radiusini  $R_g$  nisbatini kamaytirish bilan (18 b-rasmda  $L=3,2R$ ; 7.5.a-rasmda  $L=3,8R$  ga teng). Yuqoridagi barcha chora-tadbirlar mashinani gabarit o'lchamlari va og'irligini kamaytirishga olib keladi.

Yuqoridagilarga asosan porshen balandligi va  $L/R$  nisbatini kamaytirish tsilindr devorlariga nisbiy bosimni kuchayishiga olib keladi, shuning uchun porshenni chidamliligini oshirishga to'g'ri keladi.



18-rasm. Bir xil quvvatli porshenlarni dvigatellar gabaritlari

Mashinalarni bazi kategoriyalarida, yani suyuklik yoki gazda ishlaydiganlarida (gidravlik presslar, pnevmatik yoki gidravlik uzatmalar) gabarit o'lchamlari va og'irligini kamaytirishni ishchi suyuklik (gaz) bosimini kutarish bilan erishish mumkin. Masalan: ichki yonuv dvigatellarida ishchi aralashma bosimini aniq bir chegaragacha kutarish mumkin (sikish darajasini kutarish kerak), bu esa tsilindrlarni ishchi xajmini kamaytirishga yoki berilgan ishchi xajmda quvvatni oshirishga imkon yaratadi.

### Nazorat savollari

1. Ratsional kesim nima?
2. Metall sigimi nima.
3. Detallarni yengillatish vazifalari.
4. Listli shamplangan konstruktsiyalar qanday.

5. Traktor va QXM larni loyixalashda konstruktiv sxemalarini yaxshilash nimalar qilinadi

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. САПР в автомобиле- и тракторостроении. Ю.В.Дементьев, Ю.С.Щетинин. по общ. Ред. - М.В. Шарипова, М.: «Академия», 2004
2. Dugan Um. Soild Modeling and Applications. CAD/CAE. Rapid Prototyping/ Springer. USA, 2016
3. Kunwoo Lee. Principles of CAD-CAM-CAE systems. Addison-Wesley, USA, 2003
4. Malyuk V.N. Vvedenie v sovremennye SAPR:- М.: DMK Press, 2010
5. Большаков В. П., Бочков А. Л. Основы 3D-моделирования. Изучаем работу в AutoCAD, КОМПАС-3D, SolidWorks, Inventor. - СПб.: Питер, 2013

## IV. AMALIY MASHG'ULOTLAR MATERIALLARI

### 1. Amaliy mashg'ulot – 2 soat

#### ALT dasturlarida oddiy geometrik shakllarni bajarish.


*Ishdan maqsad.* KOMPAS-3D dasturi interfeysi bilan tanishish. Oddiy geometrik amallarni bajarishni o'rghanish.

**Umumiy ma'lumotlar.** KOMPAS-3D dasturini ishga tushirish barcha dasturlarni ish tushirish bilan bir xil amalga oshiriladi yani, **Pusk**→**Programmi**→**Askon**→**Kompas-3D V8**→**Kompas-3D** yoki ish stolidagi yorliqda sichqonchaning chap tugmachaSini ikki marta bosiladi. (1-rasm).



1-rasm.

Dastur ishga tushirilgan so'ng dastur bosh oynasining ko'rinishi quyidagicha bo'ladi.



2-rasm. KOMPAS-3D dasturi interfeysi

Nomi	Tavsifi
<b>Bosh menu</b>	Sistemaning komandalarini yuklash uchun xizmat qiladi
<b>Instrumentlar paneli</b>	Sistemaning komandalarini bajaruvchi tugmachalari joylashgan
<b>Kompakt panel</b>	Bir qancha instrumentlar paneli va biridan ikkinchisiga o'tish tugmachalari joylashgan
<b>Xususiyatlar paneli</b>	Obyektni tuzish yoki tahrirlash va sozlash uchun xizmat qiladi
<b>Xabar berish qatori</b>	Joriy komandaga tegishli yoki ishchi oynada kursov turgan element haqidagi ma'lumot hosil bo'ladi
<b>Maxsus boshqarish</b>	Obyektni yaratish ( <b>Sozdat' ob'ekt</b> ), bazaviy obyektni yaratish

<b>paneli</b>	( <b>Vibor bazovogo ob'ekta</b> ), obyektni avtomatik tuzish ( <b>Avtosozdanie ob'ekta</b> ) kabi maxsus amallarni bajaruvchi tugmachalar joylashgan
---------------	--

### Ish bajarish tartibi

1. Standartlar panelidagi **Sozdat'** tugmasida sichqonchaning chap tugmasini bosish orqali «**Fragment**» tipidagi yangi xujjat tuzing. Instrumentlar panelidagi **Ustanovka global'nix privyazok** tugmasini ishga tushiring va unda quyidagi parametrlar aktiv bo'lishi kerak: **blijayshaya tochka, pereschenie, uglovaya privyazka**. **Geometriya** panelidagi **Pryamougol'nik po sentru i vershine** tugmasini aktivlashtiring.



2-rasm. Instrumentlar paneli

To‘g‘ri to‘rtburchakning parametrlari parametrlar qatorida (**Stroki parametrov**) tasvirlanadi.



3-rasm. Parametrlar qatori

O‘q chiziqli to‘g‘ri to‘rtburchakni tanlang. Koordinata boshida to‘g‘ri to‘rtburchakning markazini shakllantiring. Balandlik maydoni aktiv bo‘lgani uchun «120» ni kriting va **[Enter]** ni bosing. Kengligi qiymati maydoniga «60» ni kriting va **[Enter]** ni bosing.

2. **Geometriya** panelidagi **Parallel'naya pryamaya** tugmasini aktivlashtiring.


3. To‘g‘rito‘rtburchakning gorizontal (20mm) va vertikal (45mm) o‘qi bo‘yicha yordamchi chiziq o‘tkazing.

4. **Geometriya** panelidagi **Okrujnost'** komandasini aktivlashtiring va yordamchi chiziqlarning kesishish nuqtalaridan diametri 12 bo‘lgan aylana chizing.

5. Aylanani belgilab ***Redaktirovanie*** panelidagi ***Kopirovaniye*** komandasini yordamida burilish burchagi  $90^\circ$  ga teng va 4 ta nusxa ko‘chiring.


6. **Geometriya** panelidagi ***Okrujnost'*** komandasini aktivlashtiring va to‘g‘ri to‘rtburchakning markazidan diametri 30 va 20 bo‘lgan aylanalar chizing.

Tayyor holdagi chizmaga o‘lchamlar, belgilar va matn kiritish amallari bajariladi. Dastlab tayyor xoldagi chizmaga o‘lchamlar qo‘yib chiqiladi. O‘lchamlar to‘liq qo‘yib chiqilganidan keyin ***Oboznacheniya*** panelidagi tugmachalardan foydalanib chizmaga belgilar kiritiladi hamda chizmaning quyi qismiga matn kiritiladi.



2.1-rasm

1. Standartlar panelidagi ***Sozdat'*** tugmasida sichqonchaning chap tugmasini bosish orqali «*Fragment*» tipidagi yangi xujjat tuzing. Standartlar qatoridan tugmachaşasini tanlang(2.1-rasm).



2.2- rasm

Instrumentlar panelidagi ***Ustanovka global'nix privyazok*** tugmasini ishga tushiring va unda quyidagi parametrlar aktiv bo‘lishi kerak: ***blijayshaya tochka, peresechenie, uglovaya privyazka***.

2. Instrumentlar panelidagi **Razmeri**  tugmasini aktivlashtiring (2.3-rasm).



2.3-rasm. O‘lchamlar (**Razmeri**) paneli

3. Berilgan variantga ko‘ra o‘lchamlarni qo‘yib chiqing.

4. Instrumentlar panelidagi **Oboznacheniya**  panelidagi  tugmachasini aktivlashtiring va ish maydoni qismiga matn kriting.

5. 2.4-rasmida tasvirlangan **Oboznacheniya**  panelidagi tugmachalardan foydalangan xolda chizmalarga belgilar kiritib chiqing.



2.4-rasm. Belgilashlar (**Oboznacheniya**) paneli

6. Yuqoridagi ko‘rsatmalar asosida xar bir talaba o‘zining shaxsiy topshirig‘ini bajaradi.


## 2. Amaliy mashg‘ulot: ALT dasturlarida fazoviy modellarni qurish.

**Ishdan maqsad:** KOMPAS-3D dasturida fazoviy modellarni qurishni o‘rganish.

**Kerakli uskunalar:** KOMPAS-3D dasturi bilan sozlangan kompyuter.

**Umumiylumotlar.** Standartlar panelidagi **Sozdat’** tugmasida sichqonchaning chap tugmasini bosish orqali «**Detal**» tipidagi yangi xujjat tuzing

Boshqarish panelida tasvirni aks ettirish tugmalari 4.1 – rasmda va yo‘nalishni tanlash tugmalari 4.2-rasmda keltirilgan.



4.1 – rasm.

Kompakt panelida esa tugmalar quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi (4.3-rasm).




4.3 - rasm.

### Ishni bajarish tartibi

1.Tasvirning fazodagi ko‘rinishini xosil qilish uchun undagi barcha konturlar berk bo‘lishi kerak.


Panelning «Daraxt ko‘rinishi» dagi shaklida (X, U) tekisligini tanlang. Joriy holat (tekushego sostoyaniya) panelidan **eskiz** tugmasini tanlang (4.5 - rasm). Bunda sistema eskizni taxrirlash rejimida bo‘ladi va grafik ob’ektlarni quruvchi barcha komandalarni ishlatish mumkin. 1 – laboratoriya ishida chizilgan plastinani oching. Menyudan: **Videlit’-Po stilyu krivoy– Osnovnaya** komandasini tanlang. **Standart**

panelidan **Kopirovat'** tugmasini tanlang va Sistemaning **Koordinati bazovoy tochki** savoliga javoban koordinata boshida sichqonchaning chap tugmasini bosing (4.4 – rasm).



4.4 – rasm.

Ushbu chizma oynasini «-> tugmasi yordamida vaqtinchalik endi **Detal** tipidagi chizmaga o‘ting va **Vstavit' iz bufera** tugmasini bosing. Baza nuqtani koordinata boshiga olib keling va sichqonchaning chap tugmasini bosing. So‘ngra **Prervat' komandu** tugmasini bosing.




4.5 – rasm.

Eskizni taxrirlash rejimini **eskiz** tugmasini bosish orqali tugallang .

Sistema uch o‘lchovli chizma rejimiga o‘tadi. Natijada uch o‘lchovli tekislikda plastinaning ko‘rinishi xosil bo‘lib, u yashil rangda bo‘ladi.


2. Chizmani xajmli ko‘rinishini xosil qilish uchun **Operasiy** menyusidagi **Operasiya vidavlivaniya** punktini tanlang. Ushbu komandaning parametrlar qatori 4.6 - rasmida kelitirilgan. Bu erdan quyidagi parametrlarni tanlang: **Pryamoe napravlenie**, **Rasstoyanie - 20 mm**, **Ugol - 0** (4.6 – rasm), So‘ngra **Sozdat' ob'ekt** tugmasini bosing.



4.6 – rasm.


3. Boshqarish panelidan **Polutonovoe** va **Polutonovoe s karkasom** tugmalarini aktivlashtiring.

**Daraxt ko‘rinish (Derevo postroeniya)** qismidan «**Detal**» so‘zini tanlang va sichqonchaning o‘ng tugmasini bosing. Xosil bo‘lgan kontekstli menyudan «**Svoystva detalii**» punktini tanlang (4.7-rasm).



4.7 – rasm.

